



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Pulatova Muattar Kurakboyevna

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

O'QUVCHILARNI O'QUV STRATEGIYALARIGA O'RGATISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Annotasiya. Mazkur maqolada o'quvchilarning o'zlashtirish kompetentligini rivojlantirishni ta'minlovchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, o'quv startegiyalari, pedagoglarning o'quvchilarga ko'makchilik kompetensiyasi, o'quvchining o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagoglarning roli, o'qituvchilar o'zlarida yangi yondashuvlarni shakllantira olish tendensiyalari, o'quv jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlari darajasi va turini diagnostik tahlil qila olish, mavjud ko'nikmalarini rivojlantirish, individual o'quv strategiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirish, ta'lim vositalarini o'quv strategiyalariga asoslangan yondashuvlar bilan boyitishning ijobiy imkoniyatlarini tahlil qilish masalalari yuzasidan fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: O'quv jarayoni, diagnostik tahlil, o'quv strategiyalari, ta'lim oluvchi, muvaffaqiyatli o'qitish, individual yondashuv, ta'limiy maqsad, innovatsion o'zlashtirish vositalari.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS AND DIDACTIC POTENTIAL OF TEACHING LEARNING STRATEGIES TO SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article examines issues concerning the implementation of modern educational technologies aimed at enhancing students' learning competence and analyzes the specific features of implementing learning strategies. Particular attention is given to teachers' pedagogical competence in supporting students, the role of educators in developing learners' skills for independent learning activities, and the

trends in forming innovative methodological approaches among teachers. Furthermore, the article addresses the diagnostic analysis of the level and nature of students' learning attainment, the development of their existing abilities and skills, as well as the design and improvement of individual learning strategies. The study also explores the positive potential of enriching educational resources through approaches grounded in learning strategies.

Keywords: learning process, diagnostic analysis, learning strategies, learner, effective teaching, individual approach, educational objective, innovative learning tools.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ШКОЛЬНИКОВ УЧЕБНЫМ СТРАТЕГИЯМ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы применения современных образовательных технологий, направленных на развитие учебной компетентности учащихся, а также анализируются особенности использования учебных стратегий. Особое внимание уделяется педагогической компетентности учителей в оказании поддержки учащимся, роли педагогов в развитии у школьников навыков самостоятельной учебной деятельности, а также тенденциям формирования у педагогов инновационных методологических подходов. Кроме того, в статье рассматриваются вопросы диагностического анализа уровня и характера усвоения учебного материала учащимися, развития их существующих умений и навыков, разработки и совершенствования индивидуальных учебных стратегий. Анализируются также положительные возможности обогащения средств обучения подходами, основанными на учебных стратегиях.

Ключевые слова: учебный процесс, диагностический анализ, учебные стратегии, обучающийся, успешное обучение, индивидуальный подход, образовательная цель, инновационные средства усвоения.

Kirish. Tez rivojlanib borayotgan hayot va ta'lim sharoitlari barkamol insonga xos zaruriy ko'nikmalarning minimal hajmini ham yuqori darajada boyitmoqda. Jamiyat hamda maktab ta'limi o'z bitiruvchilaridan kutayotgan har tomonlama shakllanganlik kompetentligi indikatorlari miqdori va sifati ham keskin rivojlanib bormoqda. Ma'lumotlar tezda eskirib, qadrsizlanayotgan mazkur davr axborotni tez fursatda o'rganishni, o'z vaqtida malakali foydalanishni talab etmoqda. Shuningdek, ta'lim mazmunini takomillashtirish jarayonlarining davom etayotgani qisqa davrda keng ko'lamli ma'lumotni qayta ishlab, jarayonga tadbqiq etish zarurati keltirib chiqarmoqda, ushbu jarayon natijalari yangi individual o'quv strategiyalarini ishlab chiqish va

takomillashtirishni taqazo etmoqda. Bu esa, ta'lim vositalarini o'quv strategiyalariga asoslangan yondashuvlar bilan boyitishning ijobiy imkoniyatlarini prognozlashga olib keladi. Shundan kelib chiqib, tadqiqot ishimizning xulosa va takliflari maktab ta'limining tegishli savollariga zamonaviy yechim sifatiga ega bo'ladi deyish mumkin. Umumta'lim maktablari o'qituvchilari o'quvchilarga o'quv strategiyalarini, oson o'qib – o'rganish usullarini o'rgatishi natijasida o'quvchilarning o'quv jarayonidagi kognitiv “yuk”ini yengillatishga, mazmunni tez, oson va manfaatdorlik bilan o'rganishga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmonining 3-bobida “Xalq ta'limi tizimining asosiy maqsad va rivojlanish yo'nalishlari” belgilangan. Ushbu bobning 8-bandida uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, xalq ta'limi tizimini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari sifatida “...o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida yangi, shu jumladan muqobil yondashuvlarni o'rganishga va ilmiy asoslashga yo'naltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish; o'quv muddatlarini o'zgartirmagan holda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta'minlovchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish; o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish maqsadida hamda qiziqishlari va talablarini e'tiborga olish” [1] ustuvor vazifalar sifatida belgilab qo'yilgan.

Asosiy qism. O'quv jarayonida fan o'qituvchisining o'quvchilar o'zlashtirish qobiliyatlarini diagnostik tahlil qila olishi nuqtai nazaridan o'quvchilarni o'quv strategiyalariga o'rgatish masalasi o'zining yangi yechimlarini kutayotgan yo'nalish sifatida innovatsion takliflarni talab etmoqda. Strategiya so'zi inglizcha “strategy” - “uzoq muddatli yoki umumiy maqsadga erishish uchun mo'ljallangan harakatlar rejası” ma'nosidan kelib chiqqan. O'quv strategiyalari - ta'lim oluvchining umumiy o'rganish qobiliyatlarini yaxshilash uchun ishlab chiqilgan usullardir. O'quv strategiyalari g'oyalar, xotiralar, mantiqiy fikrlash, his-tuyg'ular kabi resurslardan foydalangan holda o'rganish mazmunini o'zlashtirish va eslab qolishga yordam berish uchun mo'ljallanadi. Samarali o'quv strategiyalari o'zlashtirish darajasi har xil bo'lgan o'quvchilarga xotira va diqqatni jamlash qobiliyatini yaxshilash, o'qish va yozish ko'nikmalarini sifatini oshirish, muammolarni hal qilish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi. O'quv strategiyalarining yangi ko'rinishlari o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil ta'lim olishni rag'batlantirish, oson o'quv uslublarini o'rganish, kam vaqt mobaynida hajm va sifat jihatdan ko'lamli katta ma'lumotlarni osonlik bilan o'zlashtirish usullarini o'zida kashf etish kabi komponentlarni takomillashtirgan ko'rinishi o'quv strategiyalarining modern usuli sifatida baholanadi. O'quvchining ta'lim oluvchilar klassifikatsiyasining qaysi turiga mansubligiga qarab mahsus tamoyillar belgilanadi, yangi strategik bosqichga kiriladi. Xoslangan o'quv strategiyalari ta'lim olishni osonlashtirish, yanada qiziqarli etib boyitish, yanada samarali natijalarga erishishda vosita bo'ladi.

Umumta'lim maktablari o'qituvchilarida ma'lum bir innovatsion yondashuvni shakllantirish, rivojlantirish aniq bosqichli tamoyillarga asoslanadi. O'qitishning dolzarb muammolariga bag'ishlangan kurslar tashkil qilish, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish va ommalashtirish, o'qituvchilarning o'z faoliyatlarini tashxislashlarini taminlash, pedagoglarning kreativ salohiyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish

zarurati individual rivojlanish faoliyatini qo'llab-quvvatlash nuqtai nazaridan o'qituvchilarda o'quv strategiyasidan foydalanishning shakllanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Muvaffaqiyatli o'qitishning bir qancha strategiyalari aniqlangan: darslarga tayyorlanish, doimiy harakatlar, o'z-o'zini rag'batlantirish, chalg'itadigan narsalardan xoli muhit, maqsadni belgilash, kasbiy bilimlarni egallash, vaqtni boshqarish, yetarli o'qish, o'z-o'zini boshqarish, do'stlar va o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlar, tarmoq, bir xil maqsadga ega bo'lgan jamoa bilan bo'lmoqlik, ijobiy o'rganuvchi bo'lmoqlik va boshqalar. *Darsga tayyorlanish* - mavzuni o'rganishda ikkita faoliyat turidan foydalanishni nazarda tutadi. Birinchisi, mazmundagi faqat asosiy ma'lumotlarni ko'rib chiqish. Ushbu mashg'ulot odatda darsdan biroz oldin yoki bir kun oldin kitoblar, materiallar yoki eslatmalarni o'qish bilan amalga oshadi. Ikkinchisi - darsga kirishdan oldin ular materiallar, kitoblardan yuqorida belgilangan qismlarini takrorlash kiradi. *Doimiy harakatlar* - o'quvchiga doimiy maqsadga ega bo'lishi kerakligini anglanganligiga asoslanadi. Bu omil ularga juda kerak, chunki, aniq maqsad o'quvchini siklli o'qishlari uchun undaydi. Bundan tashqari, o'quvchilar o'qish paytida juda ko'p topshiriqlarga ega bo'lishadi, shuning uchun ular o'z vazifalarini izchil, doimiy bajarish uchun rejali harakat qilishlarini ongli ravishda tushunishlari kerak bo'ladi. Aksariyat bitiruvchi sinf o'quvchilarida mazkur strategik omillar shakllanganligi sababli, ular aniq rejali o'rganishga ehtiyoj sezishadi. Boshlang'ich va o'rta maktab davri yoshidagi o'quvchilarda ham mazkur strategik ko'nikmalarni rivojlantirish ta'lim natijalarini samarali bo'lishga olib keladi. *O'z-o'zini rag'batlantirish* - har bir o'quvchi o'zini rag'batlantirishning turli nazariy bo'lmagan usullariga ega. Ulardan ba'zilar hatto juda yuqori rivojlantirilgan rag'batlantirish usullariga ham ega bo'lishi mumkin. Bunga atrof-muhit yoki oila kabi bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi. O'z-o'zini rag'batlantirishni o'rgatish o'quvchilar uchun juda muhimligi shundaki, ular o'quv vazifalarini ko'tarinki ruhda bajarishi uchun o'zini rag'batlantirishini nazarda tutiladi. O'zini tomonidan rag'batlantirish o'quvchi o'quv "qiyinchilik"larini yengish uchun o'zida yetarli ishtiyoqni topishga olib keladi. *Chalg'itadigan narsalardan xoli muhitda bo'lish* - o'quv muhiti o'rganishda eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'quvchining mahsus joylarda, har qanday chalg'ituvchi va shovqindan uzoqda bo'lgan tinch muhitda (uyda, kutubxonada, bog'da va b.) o'qishi o'zlashtirishni osonlashtirishini tushunishiga asoslanadi. *Maqsadni belgilash* - maqsad qo'ygandan so'nggina o'quvchi vaqtini boshqaradi va nimani o'rganish va qayerdan o'rganishni bilishga intiladi. O'quvchi o'z vaqtini behuda sarflamaydi, chunki belgilab olgan darajaga erishishni maqsad qilgan. Masalan, imtihonda yaxshi ball olishni maqsad qilish kabi. *Kasbiy bilimlarni egallash* - o'quvchilarga ma'lum kasbiy mutaxassislik fanlarini professiogramma bilan integrativ tarzda o'rgatishni nazarda tutadi. Professiogramma indikatorlarini umumta'lim fanlari bilan uyg'unlashtira olish natijasida o'quvchi o'z sinfida professional bilimlarga ega bo'ladi, bu esa kelajakda ishga joylashishda yordam beradi. *Vaqtni boshqarish* - o'quvchining o'z vaqtini boshqarishga asoslangan strategiyaga ega bo'lishini nazarda tutadi. Yarim kundagi maktab mashg'ulotlari, tadbirlarga tayyorgarlik jarayonlari, to'garaklar o'quvchidan ularni optimol tashkil qilishni talab qiladi. Mustaqil o'qish, darslarga tayyorgarlik mashg'ulotlari ham vaqt jihatidan ham jismoniy stabillikni talab

qiladi. *Yetarli o'qish* – o'qish uchun yetarli vaqtga ega bo'lish o'quvchi uchun nafaqat uyda, balki maktabda, kutubxonada ham o'qishni qoidaga aylatirishga asoslanadi. Masalan, ertalab rejalashtirilgan aniq bir vaqtda o'qish, o'zlari tushunmagan yoki o'tkazib yuborgan ma'lumotlarni ko'rib chiqish va o'zlashtirish uchun har kuni kechqurun ma'lum belgilangan vaqtda yoki haftada besh kun o'qish kabilarni tushuntirish o'qituvchidan individual yondashuvni talab qiladi. O'z-o'zini boshqarish – kundalik o'quv faoliyatidagi odatlarni boshqarish oson emas. Maktabda maqsadlari aniq bo'lgan o'quvchilar o'zini o'zi boshqarish uchun rioya qilinishi kerak bo'lgan o'z qoidalarini o'rnatishni nazarda tutiladi. Masalan, maktabda o'quv yili boshlanishida yoki har kunlik mashg'ulotlar ro'yxatini tuzish singari, kundan unumli foydalanish uchun iloji boricha rejani muammosiz bajarish uchun ma'lu ko'nikmalarni shakllantirish kerak bo'ladi. *Do'stlar va o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlar o'rnatish* – muloqot yoki yordam so'rashga asoslanadi. Do'stlar va o'qituvchilar bilan o'zaro aloqada bo'lishga harakat qilishni shakllantirish akademik muammolarni hal qilish uchun ham, ko'proq tavsiyalar olish uchun ham muhim hisoblanadi. Do'stlari shuningdek, o'qituvchilari orasida muammoli vazifa yoki ma'lum fandan samarali tushuncha bera oladiganlari bo'lishi mumkinligini tushunish muhim. *Tarmoq* – o'quvchi uchun internet tarmog'iga ega bo'lishga asoslanadi. O'qituvchi undan foydalanish madaniyatini shakllanishida to'g'ri yo'nalish berishi kutiladi. Tarmoq o'quvchiga yaxshi kelajakka erishishga yordam beradi, masalan, o'qishdan keyingi qo'shimcha mashg'ulotlar haqida ma'lumot olish, stipendiyalar, grantlar, tanlovlar yoki akademik hayotda, undan tashqarida bo'lgan qiziqishlariga asoslangan ko'nikmalarini rivojlantirishda asqotadi. *Bir xil maqsadga ega bo'lgan jamoa bilan bo'lmoqlik* - o'quvchi tomonidan qo'yilgan maqsad, boshqa do'stlarining maqsadi bilan bir xil bo'lganda o'qish juda qiziqarli va jo'shqin jarayonga aylanadi. Muvaffaqiyatga erishish uchun birgalikda o'rganish ularga o'qish muammosini hal qilishda yordam beradi. Bundan tashqari, har doim bir-birini qo'llab-quvvatlash, samarali o'qishga ko'proq turtki bo'lishi pedagogning to'g'ri ko'rsatmalari asosida shakllanadi. Darsdan tashqarida ham juftlikda yoki guruhda o'rganish bolalarga ijobiy tasurotlar beradi. *Ijobiy o'rganuvchi bo'lish* - o'rganishda muvaffaqiyatga erishish uchun o'quvchilarning o'zlariga va o'z qobiliyatlariga ishonch hosil qilishiga asoslanadi. Pessimizm o'quvchining salbiy o'quvchiga aylanishiga olib kelishi mumkin. Aksariyat hollarda har qanday intiluvchan o'quvchini ham o'ziga yetarlicha ishonmaslik yoki motivatsiyaga ega bo'lmaslik najtjasizlikka olib kelishi mumkin. Aksincha, ijobiy fikrlaydigan, ruhiyatida ko'tarinkilik mavjud o'quvchi muvaffaqiyatga erishish uchun ko'proq qarorlar qabul qiladi, chunki, u o'quv maqsadlarini allaqachon belgilab qo'ygan. Salbiy kayfiyat va hissiyotlarni bartaraf etishda esa o'qituvchi, maktab psixologi, ota-ona bilan birgalikda amalga oshirilgan psixologik yondashuvi o'zining ishonchli natijalarini tasdiqlagan.

Yuqorida ta'riflangan amaliyotlarning nazariy asoslarini pedagogik adabiyotlarda uchratamiz. Maktablarda esa, ko'plab fan o'qituvchilarining faoliyati davomida foydalanib kelayotganligining guvohi bo'lamiz. Ayni pedagogik vositalarni dars turi, ma'lumot turiga emas balki, endi o'quvchiga moslash masalasi individual o'quv stategiyalarini ishlab chiqishga asos bo'ladi. Ta'lim oluvchining yoshi, xarakter-xususssiyatlari, imkoniyatlaridan kelib chiqqan, xoslangan o'rganish shakllarini ishlab

chiqishni takomillashtirish o'quv natijalarini samarasini oshirishga olib keladi. Xususan, har qanday yoshdagi o'quvchiga bitiruvchilarning OTMga kirish imtihoniga tayyorlanishi rejasi yoki ma'lum o'quvchini fan olimpiadasiga tayyorlanish aniq belgilangan rejasini amalga oshirishdagi jiddiy yondashuv va strategik bosqichlarni amalga oshirish singari belgilangan bosqichli o'quv strategiyasiga ega bo'lishni o'rgatish natijasida o'quvchi o'zi uchun qiyin hisoblangan mazmunni sifatli o'rganish usul va vositalarini ishlab chiqa olishiga erishiladi. Masalan, navbatdagi BSB yoki ChSBdan a'lo baho olish strageyasini shaxsan o'quvchining o'zi ishlab chiqishi hamda amalga oshirishi natijasida o'quvchining o'quv faoliyati hamda o'qituvchining o'qitish faoliyatidagi ayrim qiyinchiliklarga yechimlar topish mumkin. O'quvchiga o'quv staregiyasini tuzishni o'rgatish soatlab o'quvchi bilan individual ishlashni emas, balki, pedagogik diognozlash natijalari yordamida o'quvchi uchun ham oson ham qiziqarli o'rganishni shakllantiruvchi vositalarni tanlashda yo'naltirish hisoblanadi.

Maktab o'quvchilarini o'qitish uchun ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalarning maqsadi har bir darsni o'quvchilar uchun mustaqil o'quv jarayonini qanday tashkil etish kerakligiga misol bo'ladigan tarzda o'tkazishni o'z ichiga olishi muhim hisoblanadi. Maktab o'quvchilarini o'quv strategiyalariga o'rgatish jarayonining muhim xususiyati darsda o'qituvchining pozitsiyasini o'zgartirishidir. Darsda asosiy rol o'qituvchining notiqlik mahoratiga emas, balki yordam bera olish intuitsiyasiga bog'liq bo'ladi. Zamon talablari asosida o'qitish o'qituvchidan o'z malaka sifatlarini takomillashtirishni taqazo qiladi. Bu esa, intensiv yondashuvdagi o'quv amaliyotlariga qatnashish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtayi nazardan innovatsion materiallarni o'zlashtirishda, undan foydalanish ko'nikmalarni takomillashtirishda faol o'zlashtirish uslublarini tanlash, yaratish, o'rganish maktab o'qituvchisining faoliyatiga yanada ko'proq modern, muvaffaqiyatli o'qitish omillarini kiritish imkonini beradi. Sinfda o'qituvchi o'quv strategiyalarini tanlash barcha o'quvchilar uchun muhim. O'quvchilar tomonidan strategiyalardan qanday foydalanilishni va o'qituvchilar tomonidan o'rgatilishi va qo'llab-quvvatlanishi, ushbu o'quv strategiyasini guruhlashni yanada osonlashtiradi. Ushbu strategiyalarni ba'zida menejment ko'nikmalari va o'qishni tushunish singari tushunchalar bilan o'qituvchilar ochib beradi. O'quvchilar har doim ham yangi o'quv uslubini afzal ko'rishmaydi. Butun sinfda hamma uchun ochiq bo'lgan o'quv vazifalariga oid yechimlarni yaratish qiyin bo'lishi mumkin. Ta'lim sohasida faoliyat olib boradigan tadqiqotchilarining fikrlariga ko'ra, faol o'quv strategiyalaridan aralash holda foydalanish har bir o'quvchining o'quv natijalarini yaxshilashga yordam beradi va ularni chuqurroq tushunishga undaydi. Shunday qilib, o'qituvchi uchun eng yaxshi o'qitish usullari bu - o'quvchilarga tez o'rganishga va ko'proq narsani yodda saqlashga yordam beradigan o'quv strategiyalarining jamlanmasidir deyish mumkin.

O'qituvchining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning "o'rganish" kompetensiyasini rivojlantirishdir. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, o'quvchining o'quv harakatlarini to'g'ri yo'naltirish o'qituvchining yondashuviga bog'liq. A.G. Asmolov universal o'quv harakatlarini o'quv faoliyati subnektining ijtimoiy tajriba orttirishi orqali o'zini-o'zi takomillashtirishi va o'zini rivojlantirish qobiliyati sifatida belgilaydi [6]. Shunga ko'ra, o'quv strategiyalari yordamida ta'lim faoliyatini tashkil etishning to'rt

turini ko'rsatish mumkin: shaxsiy qiymat yo'nalishlari tizimini belgilash; maqsadlarni belgilash, rejalashtirish (tartibga solish, prognozlash, nazorat qilish, tuzatish, baholash va boshqalar); ma'lumot bilan ishlash, kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish (qidirish, qayta ishlash, foydalanish); ko'nikmalarni shakllantirishga hissa qo'shish (kommunikativ, birgalikdagi faoliyatda og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqot).

Maktab o'quvchilarini o'qitish yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi va kasbiy faoliyatidagi individuallikni talab qiladi. O'qituvchining ma'naviy dunyoqarashi, psixologik - pedagogik va tashkiliy texnologik salohiyati uning kasbiy salohiyatida namoyon bo'ladi. Mazkur salohiyatni pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quvchilarini o'quv strategiyalariga o'rgatish faolligi orqali ham aniqlash mumkin. Maktab o'quvchilarini o'quv strategiyalariga o'rgatish jarayonining dastlabki bosqichlaridagi murakkabliklar o'qituvchidan kasbiy jonbozlikni talab qiladi. Zamon talablari asosida o'qitish o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirib borish ehtiyojini belgilaydi. Vaholanki, kasbiy kompetentlik pedagog uchun intilishi lozim bo'lgan kasbiy cho'qqi va faoliyatining konseptual loyihasi bo'lishi zarur. Pedagog doimo turli murakkablikdagi kasbiy vazifalar va pedagogik vaziyatlarning maqbul yechimini topishga layoqatli, yangiliklar uchun ochiq, tashabbuskor, intiluvchan bo'lishi kerak. Demak, bu jarayon pedagogdan o'z faoliyatiga munosabatini o'zgartirishni, lozim bo'lsa, qayta qurishni talab etadi [10].

Xulosa. Bugungi kunda maktablarda fan va texnologiyaning amaliy uyg'unlashtirilgan o'quv faoliyati zamonaviy ta'lim talablaridan biri sifatida barcha o'quvchilar bir xil tushuna olishi va tafakkurida ko'nikma hosil qila olishi uchun innovatsion o'quv strategiyalarini qo'llashni talab qilmoqda. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi bir xil bo'lmisligi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, har bir o'quvchining o'z ehtiyojlariga alohida e'tibor qaratishni lozim topadi. Hamkorlik tamoyillari asosida tashkil qilingan o'quv faoliyati nafaqat tushuntirish, balki, ko'rsatish, savol bera olishni rivojlantirish, hayot bilan bog'lash, eng yuqori natijalar tahlili, fiziologik imkoniyatlar sarhisobi va boshqalarga asoslanadi. Ta'lim olishning har qanday turida an'anaviy, innovatsion, masofaviy-onlayn yoki mustaqil ta'lim turlarida o'quvchilarda o'zlariga akademik maqsadni qo'ya olishlari va mazkur maqsadga yetaklovchi individual harakat trayektoriyasini yarata olish ko'nikmasini shakllantirish masalasi o'zining yangi yechim va takliflarini kutmoqda. Kutilgan natijaga erishish yo'lida o'zlarini yo'naltirishlari va o'z-o'zini rag'batlantirish ko'nikmasini shakllantirishlari ham nazarda tutiladi.

O'quvchilarni o'quv strategiyalariga o'rgatishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va didaktik imkoniyatlari yordamida o'quvchilarning o'rganish faoliyatidagi aniqlangan qiyinchiliklarni yengillatish yechimlarini topish imkoni mavjud. O'quv strategiyalari haqida tushunchaga ega o'quvchi o'zining ta'limiy maqsadini amalga oshirishda moddiy, nomoddiy harakatlar kompleksini yarata oladi. Mazkur kompleks yordamida shaxsiy o'quv traektoriyasiga ega bo'ladi, natijada o'quvchining bilish faolligi oshadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.-06/21/6268/0700-son, 29.04.2019
2. Abdullayeva Sh.A., Sobirov B.B., Sultonmurodov D.B. Zamonaviy o‘qituvchining kompetensiyasi.-T.: “Komron press”, 2015. – 92 b.
3. Ibragimov A.A. Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish tizimini modernizatsiyalash parametrlari. – T.: “NAVRO‘Z” 2019.
4. Turg‘unov S.T., Daniyarov B.X. va boshqalar. O‘qituvchilarning kasbiy mahorati va kompetentligini rivojlantirish. – T.: “Саностандарт”, 2012. – 172b.
5. Wittrock, M. C., and Alesandrini, K. (1990). Generation of summaries and analogies and analytic and holistic abilities. Am. Educ. Res. J. 27, 489–502. doi:10.3102/00028312027003489
6. Асмолов А.Г. Как проектировать универсальные учебные действия в начальной школе: от действия к мысли: пособие для учителя. – М.: Просвещение, 2008.
7. Асмолов А.Г. Психология личности. Культурно-историческое понимание развития человека. – М., 2010.
8. Выготский, Л. С. Психология развития ребенка: сб. избр. тр. / - Москва: ЭКСМО, 2003.
9. Эльконин Д. Б., Давыдов В. В. Некоторые психологические проблемы построения учебных программ //Психологическая наука и образование. – 1996. – Т. 1
10. Ильясов И. И. Структура процесса учения в контексте деятельностного подхода. – 1986.
11. Хуторской А. В. Эвристическое обучение. – 2010